

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



O'ZMU rektori  
Madjidov

**SOTSIAL PSIXOLOGIYA  
FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lif sohasi:** 310000 – Sotsiologiya va psixologiya

**Ta'lif yo'nalishi:** 60310900 – Psixologiya

<b>Fan\ Modul kodi</b> SPS1412	<b>O‘quv yili</b> 2025-2026 2026-2027	<b>Semestr</b> 4 5	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6 6	
<b>Fan\ Modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O’zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg’ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Sotsial psixologiya</b>	72 72	108 108	180 180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga yosh fiziologiyasining asosiy tushunchalari, odam organizmining funksiyasini ulg‘ayish paytidagi o‘zgarishlari, hayot kechirish faoliyati, organizmning bir butunligi, uning tashqi muhit bilan uzviy bog‘liqligi, organizm, a‘zo-tizimlari fiziologik faoliyati va ularning boshqarilishida nerv va gumoral tizimlar roli, boshqarilish mexanizmlari, tashqi muhitga moslashish mexanizmlari haqida o‘rgatish va ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, turli a‘zo, tizim va umuman organizmni faoliyat ko‘rsatish xususiyatlarini o‘rgatish; turli yosh davrlarida organizm faoliyatining xususiyatlarini belgilovchi ekzogen va endogen omillarni aniqlashni; yoshning obyektiv mezonlarini aniqlash, individual rivojlanish qonuniyatlarini o‘rnatish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko‘nikmalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay olishiga erishish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Ma’ruza mashg’ulotlari</b></p> <p><b>1-Mavzu: Sotsial psixologiyaga kirish</b></p> <p>Sotsial psixologiya metodini tushunish umumiyligi psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishiga bog‘liqligi. Psixologik va sotsiologik adabiyotlarda sotsial psixologiya predmetini birdek tushunishning yo‘qligi. Sotsial psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtayi nazar.</p> <p><b>2-Mavzu: Sotsial psixologiya metodologiyasi va metodlari</b></p> <p>Ilmiy bilim rivojlanishining zamонавиy bosqichida metodologik muammolar ahamiyatini o‘sishi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchasi. Sotsial psixologiyada talablar. Sotsial-psixologik tadqiqotning ikkita asosiy tipi.</p> <p><b>3-Mavzu: Sotsial psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari va tarmoqlari</b></p>			

Ilmiy bilim rivojlanishining zamonaviy bosqichida metodologik muammolar ahamiyatining o'sishi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchasi. Sotsial psixologiyada talablar. Sotsial-psixologik tadqiqotning ikki asosiy tipi. Eksperimentli va korrelyatsion. Ma'lumotlarning ishonchligini va sharti masalasini ochish xususiyati.

#### **4-Mavzu: Sotsial psixologiyada shaxs muammosi**

Psixoanaliz. Bixevoirizm. Sotsiometriya, guruhli dinamika maktabi. Kognitivizm. Interaktsionizm. Insonparvarlik psixologiyasi. Tranzakt tahlil. Ekzistensial psixologiya. Guruhlar psixologiyasi, etnopsixologiya, oila psixologiyasi.

#### **5-Mavzu: Muloqot psixologiyasi**

"Xalqlar psixologiyasi" uning tarixiy sabablari va vazifalari, Lasarus, Shteyntal tomonidan uni programmasining shakllanishi. "Xalqlar psixologiyasi"ga Vundtning maxsus yondashuvi. Omma va olomon psixologiyasi. Tard ishlarida uch manbani va ishlarida uch tugallanishni "sotsial xatti-harakat instinkti" nazariyasi (Mak Daugall). Sotsial psixologiyaning chet eldag'i hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan asosiy nazariy kontsepsiysi.

#### **6-Mavzu: Sotsial va shaxslararo munosabatlari**

Katta guruhlar psixologiyasi muammosi. Katta guruhlarni sinflarga bo'lish zaruriyati. Noformal birlashmalar va stixiyali tashkil etilmagan guruhlar psixologiyasi.

#### **7-Mavzu: Sotsial psixologiyada guruhlar muammosi**

Katta sotsial guruhlar psixologiyasini tadqiq etishning o'ziga xosligi, sotsial psixologiya va ideologiyaning o'zaro munosabati.

#### **8-Mavzu: Sotsial psixologiyada katta guruhlarning o'rganilishi**

Etnik guruhlarning psixologik xususiyatlari. Etnik guruhlarni tadqiq etishning metodologik printsiplari. Etnik kelib chiqish, etnik guruh mavjudligining sotsial tarixiy sharoitlarga bog'liqligi. Ommaviy sotsial jarayonlar va harakatlar psixologiyasi

#### **9-Mavzu: Kichik guruhlar psixologiyasi**

Guruhlararo munosabatlar psixologiyasi sotsial psixologiyaga nisbatan yangi soha. Chet el sotsial psixologiyasida guruhlararo munosabatlarning o'rganilishi. Guruhlararo o'zaro ta'sirni guruhdagi ichki jarayonlarga ta'siri. Katta sotsial guruhlar darajasida guruhlararo jarayon spetsifikasi. Guruhlararo

munosabatlar psixologiyasining amaliy muammolari.

### **10-Mavzu Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari**

Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari. Oila funksiyalari: reproduktiv, kommunikativ, iqtisodiy, tarbiyaviy, felisitologik, regulyativ, relaksasiya.

Funktsional va disfuntsional oilalar. Oilalarning tuzilmasi va hayot sifatiga ko‘ra klassifikatsiyasi. Oila dinamikasi. Turli klassifikatsiyalar bo‘yicha oilaning rivojlanish bosqichlari. Oiladagi o‘zgarishlar: pozitiv va negativ, kutilgan va kutilmagan o‘zgarishlar va ularning er-xotin munosabatlariga ta’siri. Oilaviy-rollarga nisbatan qo‘yiladigan talablarga mutanosiblik.

### **11-Mavzu Psixologik adaptatsiya va oila integrasiyasi**

Psixologik adaptasiya va oila integrasiyasi. Oilaviy hayot sohasidagi adaptasion mexanizmlar. O‘zaro moslashuvning psixologik mohiyati. Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari tushunchasi. Moddiy, axloqiy-psixologik, intim-shaxslilik adaptatsiyalari. Oilaviy motivlar shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi oila integrasiyasining ijtimoiy-funksional mexanizmlari.

Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit. Nikohdan qoniqish omillarini sistemalashtirish. Er-xotin mutanosibligini nikohning muhim sharti sifatida tushunish.

Er-xotin qoniqanligi bo‘yicha 3 yo‘nalish: tizimli yondashuv, funksional yondashuv, moslashuvchanlik yo‘nalishi bo‘yicha taddiqotlari. Komplementarlik va gomogamlikning er-xotin qovushganligida qo‘llanilishi.

### **12-Mavzu Ota-onalar va farzandlar munosobatlarning xususiyatlari**

Oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta’siri. Ota-onalar pozitsiyasining shakllanishi. Reproduktiv ustanovkalar. Ehtiyojlar tushunchasi. Bolalarga ehtiyojdan qoniqish darajasi va uni yuzaga keltiruvchi omillar.

Ota-onalar pozitsiyasining psixologik xususiyatlari.

Ota-onalik ustanovkasi turlari. Ota-onalik pozitsiyasi, uning xarakteristikasi: faollik, adekvatlik, dinamiklik, prognostik. "Mistifikasiya" fenomen, uning formalari va bola shaxsini rivojlanishidagi o‘rni. Ota-onalik pozitsiyasini buzilish sabablari.

Reproduktiv ustanovkar. Reproduktiv ehtiyojlar va tugallanganlik tushunchasi. Bolalarda ehtiyojlarni qoniqqanlik darajasi va omillarini rivojlanishi. Ota-onalik pozitsiyasining psixologik xususiyatlari. Ota-onalik mehri tarixiy-madaniy fenomen sifatida. Oilada ota-onalar va farzandlar munosabatining asosiy xarakteristikasi. Ota-onalarning bolaga bo‘lgan mehrini emotsiyonal jihatdan qabul qilish-komil inson taraqqiyot omili sifatida. Bola tarbiyasida ota va onaning roli. Otalik va onalik mehrining xususiyatlari(E.Fromm, A.Adler).

Onalik yosh-jinsiy va shaxslilik aynanligi bosqichi sifatida. Homiladorlik krizi. Onalik deprivatsiyasi.

Tug‘ilish tartibiga qarab bolaning pozitsiyasi va shaxslilik xususiyatlarining o‘ziga xosligi. Oilada tarbiya tiplari.

Bolalar bilan oila ichidagi kommunikatsiya xususiyatlari. Bola shaxsi

rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik xarakteristikalar kompleksiga oiladagi tarbiya potentsiali va psixologik aura ta'siri. Bolaning oiladagi roli. Ota-onalar direktivalar. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlari. Oilada sibling maqomidagi munosabatlar. Sibling mohiyati. To'ng'ich bola. Ikkinci farzand, o'rtancha yoki kichik farzand. Yagona farzand. Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta'siri. Siblinglar raqobati. Ko'p bolali oilada shaxslararo munosabatlar va ularning bola psixik taraqqiyotidagi ta'siri.

### **13-Mavzu Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari**

Etnopsixologiya haqida umumiy tushuncha. Etnopsixologiya fanining predmeti, obyekti va vazifalari. Etnopsixologiyaning asosiy tushunchalari: "etnos", "madaniyat", "etnik identiklik". Etnopsixologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Etnopsixologiya fanining muammolari.

Etnopsixologiyaning fanlararo xarakteri. Etnopsixologiyaning asosiy bo'limlari. Etnopsixologik tadqiqotlarda "Emic" va "Etic" yondashuvlar. Etnopsixologiyaning tadqiqot metodlari. Etnopsixologik tadqiqotlarni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

### **14-Mavzu Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili**

Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o'ziga xos jihatlari. Millat tushunchasi. Millatning psixologik asoslari mazmuni. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Etnik muhit va etnik madaniyat. Etnik madaniyat – xulq-atvor namunalari, qadriyatlari, mazmun-mohiyatlari tizimi sifatida. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligi. Turli elat vakillari xulq-atvorining psixologik o'ziga xosligi.

Shaxsiy o'zlikni anglash va etnik o'zlikni anglash tushunchalarining mushtarakligi. Etnik o'zlikni anglashning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari. Etnonim tushunchasi. Individ sotsializasiyasida tilning o'rni. Bolalar sotsializatsiyasi va inkulturasiyasi. Shaxsning universallik va madaniy o'ziga xoslik nazariyalari muammosi. Millatning psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari. Etnik olam tasavvurining tarkibiy tuzilishi. Etnik ustanovkalar va sxemalar.

### **15-Mavzu Milliy xarakter va etnik identiklik**

Milliy xarakter va temperament. Milliy mentalitet va milliy tafakkur. Etnik identiklikning shakllanishi. Etnik identiklik turlari. Etnik identiklikning o'sishi va inqirozi fenomenlari. Milliy xarakterning asosiy nazariyalari. Milliy xarakterning asosiy o'lchovlari. Milliy va etnik ozchiliklarda etnik identiklik.

Milliy-psixologik o'ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari. Milliy psixikaning funksiyalari. Etnik ramzlar. Etnik ramziylashtirish mexanizmlari. Etnosning psixologik himoya mexanizmlari. Etnopsixologik hodisalarini o'rganishga yondashuvning ilmiy tamoyillari. Etnopsixologik fenomenlarning namoyon bo'lish mexanizmlari.

### **16-Mavzu Din psixologiyasining predmeti va metodlari**

Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta'riflari. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o'rni. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari. Dinning psixologik nazariyalari.

Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta'siri. Diniy tasalli va diniy targ'ibot. Ishonch va uning turlari. Diniy e'tiqod. Ichki (botiniy) dindorlik – din psixologiyasi predmeti sifatida.

### **17-Mavzu Dinning shaxs shakllanishidagi o'rni va mohiyati**

Diniy kechinmalarning psixologik tahlili. Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuv. Diniy amallar va diniy xulq-atvor. G.Ollport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi. V.Franklning hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi. Ratsional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi.

Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari. Da'veatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqaning vujudga kelishi. Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning nutqiy usullari. Psixotexnik usullar va ob'ekt (yollanuvchi) ongida hosil bo'lgan o'zgarishlarning tashqi belgilari.

### **18-Mavzu: Tatbiqiy sotsial psixologiyasi**

Sotsial fikr va sotsial kayfiyat – ommaviy sotsial jarayonlarning muhim xarakteristikasi. Katta sotsial gruppalar psixologiyasining emotsional tomonini sotsial fikr va sotsial kayfiyat shakllanishidagi ahamiyati.

## **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Sotsial psixologiyaga kirish
2. Sotsial psixologiya metodologiyasi va metodlari
3. Sotsial psixologiyaning asosiy yo'nalishlari va tarmoqlari
4. Sotsial psixologiyada shaxs muammozi
5. Muloqot psixologiyasi
6. Sotsial va shaxslararo munosabatlari
7. Sotsial psixologiyada guruhlar muammozi
8. Sotsial psixologiyada katta guruhlarning o'rganilishi
9. Kichik guruhlar psixologiyasi
10. Tatbiqiy sotsial psixologiyasi

## **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

- Bolalarning jismoniy va aqliy shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri;
- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kurs ishiga tayyorgarlik ko‘rish;</li> <li>• Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;</li> <li>• Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;</li> <li>• Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;</li> <li>• Talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;</li> <li>• Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari.</li> </ul>
3.	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy fiziologik tushunchalar va gigiena to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;</li> <li>• o‘sish va rivojlanish davrida a’zolar tuzilishining yoshga oid xususiyatlari; qo‘zg‘aluvchan to‘qimalar va skelet-muskul tizimining yoshga oid fiziologiyasi va gigiyenasi; nerv tizimining yoshga oid fiziologiyasi va gigiyenasi; sensor tizimlar va oliv nerv faoliyati fiziologiyasi va gigiyenasi; endokrin va visseral tizimlarning yoshga oid fiziologiyasi va gigiyenasi haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>• bolalarning yoshiga mos holda aqliy va jismoniy yuklamalarni tanlash; oliv nerv tizimiga qarab individual yuklamalarni tanlash; antropometrik ko‘rsatkichlarni aniqlash; turli sharoitda atrof-muhitga gigiyenik baho berish; ta’lim jarayonida yoshga oid xususiyatlarni hisobga olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></li> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blis-so’rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalari.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. V.Y.Ahrorov SOTSIAL PSIXOLOGIYA.O‘quv qo‘llanma. – Samarqand 2020-y.-246b.</li> <li>2. V.M.Karimova, O.E.Hayitova, N.Sh.Umarova Sotsial psixologiya.</li> </ol>

	<p>Darslik. – Toshkent, 2020y.-225 b.</p> <p>3. Z.E.Abduraxmanova Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.:2023y.-140 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. Sh.M.Mirziyoev "Niyati ulug'xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug'va kelajagi farovon bo'ladi" – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2019 yil</p> <p>2. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil</p> <p>3. Sh.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil</p> <p>4. Sh.M.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida parpo etamiz. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil</p> <p>5. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil</p> <p>6. Carr A. Family Therapy. Concepts, Process and Practice. Second Edition. – John Wiley &amp; Sons Ltd, 2006. – 649 p.</p> <p>7. E.G‘.G‘oziev Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent., 2010.</p>
	<p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.koob.ru">http://www.koob.ru</a></p> <p>2. <a href="http://www.psychology-online.net">http://www.psychology-online.net</a></p> <p>3. <a href="http://psylib.kiev.ua/">http://psylib.kiev.ua/</a></p> <p>4. <a href="http://www.psychology.ru/Library">http://www.psychology.ru/Library</a></p> <p>5. <a href="http://psychology.net.ru/articles">http://psychology.net.ru/articles</a></p>
7.	O‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 20_yil _____ gi ____ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>N.Majidov - O‘zMU Ijtimoiy psixologiya kafedrasи dotsenti</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>D. Arziqulov – O‘zMU psixologiya fanlar doktori</p> <p>F. Choriyev – O‘zbekiston Jamoat Xavfsizligi Universiteti PhD</p>